

FARG‘ONA VODIYSIDA DEHQONCHILIK MADANIYATINING VUJUDGA KELISHI, O‘TROQ AHOLINING JOYLASHUVI, BINOKORLIK VA ME’MORCHILIK

Yo‘ldashev Ikromjon Tursunaliyevich.

Qo‘qon davlat universiteti Tarix kafedrası, t.f.n.

Annotatsiya: Mazkur maqolada dehqonchilik madaniyatining shakllanish jarayoni, uning insoniyat tarixidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Unda o‘troq hayot tarzining vujudga kelishi, aholining doimiy yashash joylarida joylashuvi bilan bog‘liq ijtimoiy va iqtisodiy omillar tahlil qilingan. Shuningdek, qadimgi binokorlik va me‘morchilik an‘analari, ularning dehqonchilik bilan bog‘liqligi hamda moddiy madaniyatning taraqqiyotidagi roli ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Dehqonchilik madaniyati, o‘troq turmush, binokorlik, me‘morchilik, qadimgi jamiyat, moddiy madaniyat, tarixiy taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье освещён процесс формирования земледельческой культуры, её место и значение в истории человечества. Проанализированы возникновение оседлого образа жизни, социальные и экономические факторы, связанные с заселением людьми постоянных мест проживания. Также рассмотрены древние строительные и архитектурные традиции, их связь с земледелием и роль в развитии материальной культуры.

Ключевые слова: Земледельческая культура, оседлый образ жизни, строительство, архитектура, древнее общество, материальная культура, историческое развитие.

Annotation: This article explores the formation process of agricultural culture, its place and significance in human history. It analyzes the emergence of a sedentary lifestyle and the social and economic factors related to the settlement of people in permanent habitats. The study also examines ancient construction and architectural traditions, their connection to agriculture, and their role in the development of material culture.

Keywords: Agricultural culture, sedentary lifestyle, construction, architecture, ancient society, material culture, historical development.

Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyodagi dehqonchilik o‘lkalaridan biridir. Ma‘lumki, aynan dehqonchilik asosida o‘troq hayot, hunarmandchilik, me‘morchilik va shaharsozlik madaniyati vujudga kelgan. Vodiya dehqonchilik madaniyati qachon paydo bo‘lganligi masalasi uzoq vaqtdan beri o‘z echimini topolmay, turli tortishuvlarga sabab bo‘layotgan muammo bo‘lib qolmoqda. Fikrimizcha, buning sabablari quyidagicha:

1. Eng qadimgi dehqonchilik madaniyatiga oid moddiy madaniyat ashyolari haligacha aniqlangani yo‘q. Markaziy Farg‘onadan topilgan neolit (yangi tosh) davri yodgorliklarida kam va mayda bo‘lsa-da sopol namunalari mavjud[1].

2. Neolit davridan so'ng vodiy tarixida uzilish bo'lib qolgan, ya'ni madaniy qatlamlar va ularga bog'liq yodgorliklar aniqlanmagan. Shuning uchun neolitdan keyingi davrlar haqida ma'lumotlar mavjud emas. Ayrim bronza davri xazinalari (Xok, Aflotun) yoki So'x va O'shdan topilgan tarozi toshlari bu erda ilk bronza davri izlari bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Mahalliy aholining xo'jaligi aynan shu davrdan boshlab ikki xil: ko'chmanchi-chorvachilik va dehqonchilikdan iborat bo'lgan. Bu fikrni birinchi bor A.N. Bernshtam ilgari surgan va keyingi izlanishlar bu g'oyaning naqadar to'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Ko'chmanchi-chorvadorlarga taalluqli yodgorliklar Qayroqqum madaniyati deb yuritiladi. Mavjud arxeologik yodgorliklardan topilgan buyumlarga qarab shunday xulosa qilish mumkinki, mil.avv. XII-XI asrlarda vodiyda ilk dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi madaniyati namunalari paydo bo'ladi va fanda birinchi topilgan yodgorlik nomi bilan Chust madaniyati deb yuritildi. Farg'onada qadimgi dehqonchilik madaniyatining kelib chiqishi to'g'risida bir necha qarashlar bor. Ularni quyidagi ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin: 1. Farg'ona qadimgi dehqonlari mahalliy asosga ega va ular azaldan shu erda yashab kelganlar. 2. Vodiy ko'chmanchi-chorvadorlari janubdagi ilg'or dehqonlar ta'sirida asta-sekin dehqonchilikka o'tgan bo'lishlari kerak[2]. Tadqiqotchilar fikrlariga hamohang ravishda biz ham vodiy dehqonchilik madaniyati mahalliy asosda kelib chiqqan degan fikrga qo'shilamiz. Qolaversa, vodiy arxeologiyasida yirik kashfiyotlar qilgan olimlar Yu.A.Zadneprovskiy va N.G.Gorbunovalar qadimgi dehqonchilik mahalliy asosga ega, degan fikrni ilgari surganlar. Ularning xulosalariga ko'ra, Chust madaniyatiga o'xshagan majmualar dehqonchilik uzoq rivojlangan hududlarda tarqalgan. Jumladan, mil.avv. II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoning bir necha rayonlarida ko'plab tomonlari bir-birlariga o'xshaydigan arxeologik madaniyatlar paydo bo'ladi. Bularga Kuchuktepa[3], Tillatepa (Baqtriya), To'rtko'ltepa, Ko'ktepa, Sangir va Podayotoqtepa (Sug'd), Burg'uluq (Toshkent vohasi), Yoztepa (Marg'iyona) va boshqalar kiradi. Ammo, ularning kelib chiqishi haqida munozarali qarashlar ham bor. Mazkur fikrlarni jamlasak, ikki guruh aniqlanadi, chunonchi:

1. Bu guruh: migrasiya, ya'ni qabilalarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi bilan bog'liq. Mazkur g'oya tarafdorlaridan ayrimlarning fikricha, Chust madaniyati kabi majmualar mintaqaning turli viloyatlariga Farg'ona vodiysidan tarqalgan. Ayrim tadqiqotchilar esa bunday majmualar Eron – Xurosondan boshqa erlarga, xususan, vodiylarga kelib qolgan, deya xulosa qiladilar.

2. Bu guruh vakillari qadimgi dehqonlarning kelib chiqishi mahalliy asosga ega deb hisoblaydilar. Mahalliy aholi janubdagi rivojlangan madaniyatlar ta'sirida dehqonchilikka o'tganlar. Bu g'oya tarafdorlarining fikricha, mahalliy dehqonlar kelgindi ko'chmanchilar bilan aralashib, so'ng Chust shaklidagi madaniyatlar paydo bo'lgan. Qadimgi dehqonchilik yodgorliklari asosan soy bo'ylariga joylashgan. Ya'ni,

qadimgi aholi tog' oldi etaklaridagi buloq bo'ylarida, daryo sohillaridagi pastqam, sug'orilishi oson joylarda dehqonchilik qilishga asta-sekin o'ta boshlaganlar. Yodgorliklarni suv manbalari asosida rayonlashtirish borasida A.N.Bernshtam, B.A.Latinin, Yu.A.Zadneprovskiy, N.G.Gorbunova va B.Abdulgazievalarning ishlanmalari bor. Ulardan B.A.Latinin va Yu.A.Zadneprovskiyning ishlari diqqatga molikdir. B.A.Latinin o'tgan asrning 30-40 yillaridayoq irrigasiya inshootlari va sug'orma dehqonchilik masalalariga e'tibor qaratdi. Olim o'z ishlarida irrigasiya, sug'orma dehqonchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini uchga bo'ladi:

1-bosqich. Sug'orishning eng oddiy va oson usullarining paydo bo'lishi, bunga ko'llama sug'orish usuli kiradi. Bunda daryo, soylar toshqinidan tabiiy sug'oriladigan erlar tushuniladi. Aholi sun'iy toshib chiqqan "telba" suvni tartibga soladi va uni boshqaradi. Shu tariqa eng dastlabki sug'orma dehqonchilik ko'nikmalari paydo bo'ladi (Farg'onada bu jarayon qanday bo'lgani haqidagi dalillar kiritilgan).

2-bosqich. Sun'iy sug'orishga o'tila boshlanishi, sodda irrigasiya inshootlarining vujudga kelishi. Ayrim daryo va soylardan suv olish mumkin bo'lgan joylarda suv ayirg'ichlar quriladi. Ular etnografiyada "uchoyoq" ham deyiladi. Tadqiqotchining fikricha, shu davrda magistral kanallar paydo bo'ladi.

3-bosqich. Mavjud irrigasiya inshootlari endi murakkablasha boradi. Faoliyat ko'rsatayotganlarining unumini oshirish uchun tozalanadi va ulardan mayda kanallar to'g'rirog'i, ariqlar chiqariladi.

Bu g'oya tadqiqotchiga tarixiy davrlarni ham xuddi shunday, ya'ni Farg'ona I, II, III[4] davri tarzida davrlashtirishga turtki berdi va bu usul olimning keyingi ishlarida ham davom etdi. Aytish kerakki, bu farg'onashunoslikda olg'a qadam va muvaffaqiyatli chiqqan ishlanma edi. Keyinchalik yana boshqa farg'onashunos olim N.G.Gorbunova ham shunday davrlashtirishni o'z ishlariga asos qilib oldi.

Yuqorida to'xtab o'tilgan bosqichlarga ajratishni B.A. Latinin boshqa bir ishida quyidagi nomlar bilan, ya'ni birinchi bosqichni – "ko'llama", ikkinchi bosqichni – "soy" va uchinchi bosqichni – "elpig'ichsimon" sug'orish usullari deb ataydi. Biroq ushbu olimning olib borgan ishlari va yo'nalishi to'g'ri bo'lishiga qaramay, uning ba'zi ilmiy maqolalarida berilgan ayrim xulosalari etarli dalillar bilan ta'minlamagan. Bu holat ayniqsa sug'orish inshootlarining keyingi bosqichlari davrini belgilashda yaqqol ko'rinadi. Olimning fikricha, murakkab sug'orish inshootlari va magistral kanallar vodiya boshqa hududlarga qaraganda kechroq paydo bo'ladi. Uning ushbu fikrini tushunish mumkin, albatta, chunki o'sha paytda arxeologik materiallar juda kam bo'lib, topilganlari ham hali chuqur o'rganilmagan edi. Keyingi tadqiqotlar esa tadqiqotchining bu boradagi fikrlariga (masalan, vodiya magistral kanallar paydo bo'lishi masalasi) ga ayrim o'zgartirishlar kiritdi. Bu muammoning dolzarb bo'lishiga sabab, shu vaqtgacha Chust madaniyati yodgorliklari yaqinida irrigasiya inshootlari qoldig'i topilmagan. Faqat O.A.Rijkovning geologiya-stratigrafik kuzatuviga asosan

Yu.A.Zadneprovskiy tomonidan bildirilgan fikr mavjud. Unga ko'ra, sun'iy kanallar vodiya mil.avv. II - I ming yillik boshlarida paydo bo'lgan. Biroq ushbu muallif so'nggi yillardagi ishlarida Farg'onadagi sun'iy kanallar bo'lmish O'zganariq (uzunligi 37 km), Shahrixonsoy (100 km), Andijonsoylar mil.avv. I ming yillik o'rtalarida bunyod etilgan, degan fikrni ilgari suradi. Olim bu xulosalarni kanallar bo'yidagi arxeologik yodgorliklar va madaniy qatlamlarga asolanib bildirgan. Arxeolog B.Abdulgazieva tomonidan Shahrixonsoy bo'yida aniqlangan Sultonobod yodgorligining topilishi va o'rganilishi bu fikrni tasdiqlaydi. Keyingi yillarda Sharqiy Farg'onada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bir guruh kanallar aniqlandi va ularning paydo bo'lishi sanasi ham mil.avv. I ming yillik o'rtalari bilan belgilandi. Bular Mirzaariq, Qumariq va boshqalardir. Mutaxassislarning fikricha, bu irrigasiya inshootlari bo'yidagi yodgorliklar tizimi ularning aynan shu kanallar yoqasida bunyod etilganligini ko'rsatmoqda. Masalan, Qoradaryo shahar xarobasiga suv faqat O'zganariqdan olinishi mumkin. Shu vohalardagi kanallardan chiqarilgan kichik anhorlar, to'g'rirog'i, ariqlar izlari ham qayd etilgan. Bular Kamanariq, Atamaqulariq, Jo'nariq, Xo'jaariq va boshqalardir. Bu hududlardagi aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, xo'jalikda sug'orma dehqonchilikka asoslangan oddiy va oson sug'orish tizimi mavjud edi. Issiq havo sharoitida aynan sug'orma dehqonchilik hosildorlikni bir necha marta oshirishi mumkin edi. Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, dehqonchilik ko'p hollarda erni haydab shudgor qilishga asoslangan. Boshqali (bug'doy, arpa va tariq) va dukkakli ekinlarni (no'xat) haydama erga ekibgina yaxshi hosil olish mumkin bo'lgan. Qo'sh solib er haydash manzarasini shu davrga oid toshga o'yib ishlangan suratlarda kuzatish mumkin[5]. Ular Farg'ona tog' tizmasidagi Saymalitosh va So'x yaqinidagi Yangiariqsoyda aniqlangan. Qo'sh (omoch) tortishda ot, eshak, ho'kiz kabi hayvonlardan foydalanilgani xaqiqatga yaqindir. Sababi, ushbu hayvonlar suyaklarining qoldiqlari arxeologik yodgorliklardan topilgan. Ayniqsa, ot qadimgi aholining kundalik hayotida favqulodda ahamiyatga ega bo'lgan. U transport vositasi, ishchi hayvon (omochga qo'shish) hamda oziq-ovqat manbasi edi. Shu boisdan Chust yodgorliklaridan topilgan ustuxonlar orasida ot suyaklari ancha salmoqli o'ringa ega. Jumladan, Dalvarzinda ot suyaklari salmog'i 13,8 foizni tashkil etadi.

Xulosa. Dehqonchilik madaniyati insoniyat jamiyatining rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, u o'troq turmush tarzini qaror toptirgan. Bu esa o'z navbatida binokorlik va me'morlik san'atining rivojiga, mahalliy yashash joylarining barpo etilishiga olib kelgan. Qadimgi dehqonchilik jamiyatlarining moddiy madaniy merosi bugungi arxeologik va tarixiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Литвинский Б.А. «Саки, которые за Согдом» // Тр. АН ТаджССР. Т. СХХ. – Сталинабад, 1960. – С. 21
2. Пьянков В.И. Древнейшие государственные образования // История таджикского народа. Т. I. Древнейшая и древняя история. – Душанбе, 1998. – С. 247.
3. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М. – Л., 1962. – № 118. – С. 91.
Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура ... – С. 92.
4. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М. – Л., 1950. Ч. II. – 336 с.
5. История Узбекской ССР. – Ташкент: АН УзССР, 1955. Т. 1. – С. 89-91.